

BEKCHANOVA Manzura Shuxratovna

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Islomshunoslik" yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: XAKIMOVA Nigora Alisherovna

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrasi dotsenti*

G'ARB OLIMLARINING "AL-JOME AS-SAHIH" ASARIGA OID TADQIQOTLARI

ИССЛЕДОВАНИЯ ЗАПАДНЫХ УЧЁНЫХ, ПОСВЯЩЁННЫЕ ТРУДУ «АЛ-ДЖАМИ' АС-САХИХ»

RESEARCH BY WESTERN SCHOLARS ON THE WORK "AL-JAMI AS-SAHIH"

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sahihul Buxoriy asarining G'arb olimlari tomonidan ilmiy nuqtai nazardan o'rganilishi va baholanishi batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqotda, Sahihul Buxoriy nafaqat Islom olamida, balki butun dunyo miqyosida hadis ilmida asosiy manba sifatida qanchalik e'tiborga loyiq ekanligi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada Sahihul Buxoriy asarining xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan qanchalik yuqori baholangani, uning ishonchliligi va tanqidiy ilmiy mezonlar asosida qadrlanishi, hamda jahon ilmiy maydonida hurmatga sazovor manba sifatida tan olinishi haqida kengroq ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Sahihul Buxoriy, G'arb olimlari, Ignaz Goldziher, Jonatan Braun, ilmiy tadqiqot, e'tirof, sahiflik mezonlari.

Аннотация: В данной статье представлен комплексный анализ рецепции и научной оценки свода хадисов «Сахих аль-Бухари» в западном исламоведении. Исследование демонстрирует, что данное сочинение признано не только фундаментальным первоисточником в мусульманском мире, но и авторитетным памятником в мировой академической среде. В работе освещается процесс признания достоверности «Сахиха» международным

научным сообществом, анализируется его соответствие критериям историко-критического метода и текстологической критики. Особое внимание уделяется эволюции взглядов западных ориенталистов, их исследовательским подходам и определению места наследия имама аль-Бухари в контексте истории исламских наук, что в совокупности подтверждает его исключительную научную значимость на глобальном уровне.

Ключевые слова: Сахих аль-Бухари, западные учёные, Игнац Гольдциер, Джонатан Браун, научное признание, критерии подлинности.

Annotation: This article provides a detailed analysis of the study and evaluation of Sahih al-Bukhari by Western scholars from a scientific perspective. The research demonstrates that Sahih al-Bukhari is not only a central reference in the Islamic world but also a highly respected source in the field of Hadith studies globally. Furthermore, the article highlights how the work has been evaluated positively by the international scholarly community, emphasizing its reliability, adherence to critical scientific criteria, and recognition as a highly esteemed source in the global academic arena. The study also explores the views of Western scholars, their scholarly approaches, and the position of Sahih al-Bukhari in the history of Islamic sciences, thus confirming both its academic significance and its acceptance worldwide.

Keywords: Sahih al-Bukhari, Western scholars, Ignaz Goldzeher, Jonathan Brown, academic recognition, criteria of authenticity.

KIRISH

Hadis ilmi islom sivilizatsiyasining shakllanishida va sunnatning normativ manba sifatida qaror topishida muhim o'rin tutadi. Xususan, Imom Buxoriy va tomonidan jamlangan sahih hadislar to'plami Qur'ondan keyingi eng ishonchli manba sifatida e'tirof etilib, asrlar davomida diniy va axloqiy tafakkurning poydevorini tashkil etib kelgan. Mazkur to'plam nafaqat islom ilmlari doirasida, balki G'arb islomshunoslik maktablarida ham alohida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda.

G'arb olimlari hadis to'plamlarini islom sivilizatsiyasining markaziy intellektual mahsuli sifatida ko'rib, ularning shakllanish jarayoni, metodologik mezonlari va musulmon jamiyatidagi funksional o'rnini turli nazariy va tarixiy

ASOSIY QISM

yondashuvlar asosida tadqiq etganlar. Ayniqsa, Sahihul Buxoriyning jamlanishi, sahihlik mezonlarining qat'iyligi va ushbu asarning me'yoriy maqomga ega bo'lish jarayoni G'arb akademik muhitida mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllangan. Shu bilan birga, zamonaviy musulmon ilmiy muhitida hadis to'plamlarining tarixiy shakllanish jarayonini tizimli va metodologik asosda o'rganishdagi yondashuv o'ziga xos ekanini kuzatish mumkin.

G'arb islomshunosligida hadis ilmi, xususan Sahihul Buxoriyga berilgan baholarni tahlil qilish, turli olimlarning yondashuvlarini solishtirish hamda mazkur asarning islom sivilizatsiyasidagi markaziy o'rnini akademik nuqtai nazardan yoritish muhim hisoblanadi. Maqola doirasida Marshall Hodgson, Dafna Effort, Tarif Xolidiy, Richard Ballet, Ignaz Goldziher va Jonatan Braun kabi yetuk G'arb olimlarining qarashlari tahlil qilinib, Sahihul Buxoriyning shakllanish jarayoni va uning global ilmiy maydondagi maqomi ochib beriladi.

G'arb olimlari hadis to'plamlarini muntazam ravishda e'tirof etilgan va islom sivilizatsiyasi negizidagi tan olingan me'yoriy majmualar sifatida tilga olib kelganlar. Hadis ilmi sohasidagi ikki asosiy to'plam hisoblangan Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih to'plamlariga esa alohida e'tibor bilan yondashadilar.

Xususan, G'arb akademik muhitida Sahihul Buxoriyni jamlash jarayoni, uni tan olingan asosiy manba sifatida shakllanishi, unga qo'yilgan ilmiy mezonlar hamda uning musulmon jamiyatidagi diniy va ijtimoiy o'rnini alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy musulmon olimlari orasida hadis asarlarining paydo bo'lishi va uning tarixiy-dinamik funksiyalariga oid masalalarda tizimli va metodologik jihatdan mukammal yondashuv yetarli darajada shakllanmaganini kuzatish mumkin. Aksariyat hollarda ushbu mavzuga bag'ishlangan musulmon mualliflarning asarlari mo'tadil ruhda amalga oshirilgan bo'lib, ularning ishlari G'arb tadqiqotchilari tomonidan ilgari surilgan tanqidiy masalalarni ko'rib chiqishdan ko'ra, mavzu bo'yicha mavjud an'anaviy qarashlarning tizimli tahliliga yo'naltirilgan.

G'arb olimlari orasida islomshunoslik sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar o'z ilmiy ishlarini xolis yondashuv asosida amalga oshirish maqsadida islom dinining asosiy manbalaridan biri bo'lgan sunnatni o'zida mujassam etgan hadis ilmi va u bilan bog'liq tushunchalarni ham o'rganadilar. Ushbu ilmda asosiy hadis to'plami sifatida Sahihul Buxoriy e'tirof etiladi.

G'arb olimlari orasida bu asarni va Imom Buxoriy hayotini batafsil o'rgangan tadqiqotchilar orasida Ignaz Goldziher va Jonatan Braunni keltirish mumkin. Ayrim olimlar esa, o'z tadqiqotlarida Sahihul Buxoriy yoki sahih to'plamlari borasidagi ma'lumotlarga qisman to'xtalib o'tish bilan cheklanadilar. Quyidagi qismda biz aynan shunday tadqiqotlarni va ularning yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.

Ilk tadqiqotchimiz, zamonaviy islomshunoslik sohasining "Ibn Xalduni" deya e'tirof etilgan Marshall Hodgson (vaf.1968). U ham aynan Ibn Xaldun kabi islom olamining rivojlanishi jarayonlarini o'rganib, islom sivilizatsiyasi haqidagi zamonaviy "Muqaddima"sini yaratgan. Mazkur amerikalik olim 20-asrda faoliyat yuritgan va Chikago universitetida dars bergan. U yerda islom sivilizatsiyasi bo'yicha bir yillik kursni ishlab chiqqan. Hodgsonning ilmiy ishlari, xususan, uning vafotidan keyin nashr etilgan uch jildlik "The Venture of Islam: Conscience and History in a World Civilization" (Islom sarguzashtlari: Dunyo sivilizatsiyasi va tarixi) nomli asari islom dinining global kontekstdagi o'rnini ochib berishda va madaniy-ma'rifiy jihatlarini tushunishda yangicha yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur asar islom sivilizatsiyasini o'rganishda betakror tadqiqot hisoblanib, unda ishonchli hadis to'plamlari hisoblangan Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih to'plamlari muqaddas manba sifatida hurmat qilingani qayd etilgan. Shuningdek, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan ulamolar islom sivilizatsiyasining yetakchi bunyodkorlari ekani va bu jarayon ayni shu davrda to'liq shakllanganiga alohida urg'u berilgan. Xususan shu davrda islom huquqi fan sifatida shakllandi va fiqh maktablari vujudga keldi[1:332].

G'arb islomshunos olimlaridan yana biri Dafna Effort bo'lib, u islom tarixi professori, Isroildagi Open University oliy ta'lim muassasining tarix, falsafa va yahudiylik ta'limotiga oid tadqiqotlar bo'limida faoliyat yuritgan. Uning tadqiqotlari asosan tasavvufni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, u sufiy olimlarning ma'naviy yo'li islom dunyosini qanday kengaytirgani, shogird hamda izdoshlar jamoalarining qanday tashkil qilingani ustida tadqiqot olib boradi. Shuningdek, u sufiy shayxlari vakolatining manbalari va uning turli ko'rinishlarini o'rganadi. U doktorlik tadqiqotini Garvard universitetining Tarix va Yaqin Sharq tadqiqotlari bo'limida himoya qilgan [8].

U o'z faoliyati davomida ko'plab islomshunoslik, tarix, va olimlarning ilmiy merosiga oid tadqiqotlar olib borgan. Mazkur tadqiqotlar nufuzli universitetlar tomonidan nashr qilingan. Xususan, u quyidagi kitoblarning muallifi hisoblanadi:

“A Learned Society in a Period of Transition” (O'tish davridagi ilmiy jamiyat);

1. “Spiritual Wayfarers, Leaders in Piety: Sufis and the Dissemination of Islam in Medieval Palestine” (Ruhiy sayohatchilarni va taqvdor yetakchilar: so'filar va o'rta asr Falastinida Islomning tarqalishi);

2. Sufi Masters and the Creation of Saintly Spheres in Medieval Syria (Sufiy shayxlar va O'rta asr Suriyasidagi muqaddas doiralarni yaratilishi).

U o'zining “A Learned Society in a Period of Transition” asarida shunday ta'kidlaydi: “Uchinchi hijriy asrga kelib (ya'ni Imom Buxoriy yashagan davr) hadis musulmonlarning hayotida markaziy o'rinni egalladi. Payg'ambar (s.a.v.) sunnati asosiy tan olingan hadis to'plamlarida tizimlashtirildi [2:40]”. Bu davrda Imom Buxoriyning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissa beqiyos bo'lib, u sahih hadislarini yig'ish va tartibga solish orqali hadis ilmini mukammallashtirdi, musulmon jamiyatida diniy manbaalarni tizimli ravishda saqlash va tarqatishga katta hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Islom tarixi va hadis ilmi rivoji bilan shug'ullangan boshqa olimlar ikki buyuk muhaddis Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih to'plamlari jamlanishini hadis ilmi shakllanishidagi yakuniy bosqich sifatida ko'rsatganlar. Tarif

Xolidiy mana shunday fikrdagi tadqiqotchilar sirasiga kiradi.

Tarif Xolidiy falastinlik tarixchi va islomshunos bo'lib, hozirda Livandagi Amerikan Universitetida faoliyat olib bormoqda. U Garvard va Chikago universitetlarida tahsil olib, islom tarixi va arabshunoslik bo'yicha ko'plab asarlar muallifi hisoblanadi. Jumladan, “The Qur'an: A New Translation” (Qur'onning inglizcha tarjimasini), “Arabic Historical Thought in the Classical Period” (Klassik davrda arab tarixiy tafakkuri) asarlarini keltirish mumkin. Xolidiyning tadqiqotlari asosan arab va islom tarixini, klassik arab tafakkuri va musulmon rivoyatlarini o'rganishga qaratilgan. Faoliyatining eng yorqin asarlaridan biri bu shubhasiz, “Arabic Historical Thought in the Classical Period” asari hisoblanadi.

Olim ushbu tadqiqotida hadis ilmi borasida shunday deydi: “Imom Muslim yashagan davrga kelib hadislar soni ancha ko'payib ketgan va o'zining miqdoriy chegarasiga yetgan edi, ularni tanlash hamda tartibga solish uchun aniq qoidalar ham shakllangan edi”[3:43]. U: “Imom Buxoriy va Imom Muslim hadislariga yakuniy to'plam sifatida shakl berganlar [3:59]” deya qo'shimcha qiladi. Ya'ni, Imom Muslim va Imom Buxoriy o'zlarining sahih asarlari orqali, eng ishonchli hadislarini tizimli ravishda yig'ib, tekshirib va tartibga solib, musulmon jamiyatida ularga markaziy o'rin berdi. Shu tariqa, Sahihul Buxoriy islom ilmlarining barcha sohalarida manbaga asoslangan asarlar paydo bo'lishida poydevor bo'lib hizmat qildi. Xolidiyning bu so'zlari bilan, Imom Buxoriy va Imom Muslimning metodologiyasi va qat'iy talablariga amal qilgan holda to'plangan hadislar keyingi asrlar davomida musulmon olimlari uchun me'yoriy asosga aylanganini takidlamog'da.

Yana bir yetuk G'arb olimlaridan biri, aynan Sahihul Buxoriy haqida fikr bildirmagan bo'lsada, o'z tadqiqotlarining birida tan olingan “Sihohi sitta” ya'ni, olti eng ishonchli sahih to'plamlariga alohida urg'u bergan. Bu olimining ismi Richard Ballet bo'lib, u Amerikalik tarixchi va hozirda O'rta Sharq tarixi bo'yicha professor hisoblanadi. Uning mutaxassisligi islom mamlakatlarining ijtimoiy tarixiga, shuningdek, texnologiya tarixiga ixtisoslashgan. Ballet, Garvard universitetida

tahsil olgan. U bakalavr (1962), magistratrlk (1964) va doktorlik darajalarini (1967) aynan shu universitetda qo'lg'a kititgan [9]. Shu bilan birga uning tadqiqotlari ichida bevosita islom bilan bog'liq bo'lgan asarlar ham mavjud bo'lib, ularda "Sihohi sitta" asarlari haqida ham so'z boradi.

U o'zining "Islam: The View from the Edge" (Islom: Tashqaridan nazar) asarida, eng ishonchli hadis to'plamlari musulmonlar orasida Payg'ambar (s.a.v.) sunnatini faqat og'zaki rivoyat qilish shaklida saqlashdan yozma matnlarga tayangan holda saqlashga o'tilgan muhim burilish davri ekanini ko'rsatadi. U eng ishonchli hisoblangan sahih to'plamlarni shakllanishini Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih to'plamlari paydo bo'lishi bilan emas, balki ushbu o'tish davri bilan bog'lashni ma'qul ko'radi. Goldziherga asoslanib, Ballet shunday deydi: "Hadis ilmi XIII asrgacha asta-sekin rivojlanib, umumiy qabul qilingan shaklga keldi. Ahli sunna val jamoa musulmonlarning ko'pchiligi uchun esa olti mashhur hadis to'plamlari eng ishonchli manbalar deb tan olindi [4:19]".

Shu o'rinda muhim bir jihat mavjud bo'lib, "Sihohi sitta" to'plamlari sanalganda, birinchi tilga olinadigan manba Sahihul Buxoriy hisoblanadi. Bu holat tasodifiy emas, chunki Imom Buxoriy hadisni tanlash, isnod va matnni tekshirish borasida mislsiz qat'iy mezonlar joriy qilgan, va aynan shu me'yoriy uslub "sahih hadis" tushunchasini aniq ilmiy mezonlarga bog'lab berdi. Shu sababli, sahih hadislarning, eng ishonchli manbaaga aylanish jarayoni haqida so'z borganda, u og'zaki rivoyatdan yozma matnga o'tish bilan birga, Imom Buxoriyning hadis ilmini eng yuqori ilmiy darajaga ko'targan beqiyos xizmatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Sahihul Buxoriy, nafaqat hadis to'plami, balki islomda sunnatni anglash, qabul qilish va unga tayanishning eng asosiy va ishonchli mezoniga aylangan manbaa sifatida qaraladi.

Shu jumladan, zamonaviy tadqiqotchilardan Muhammad Abduraufiga tilga olmasdan bo'lmaydi. U o'z asarlaridan birida Sahihul Buxoriyga bo'lgan qarashlarini bayon qilib, bu to'plamning islom ilmlari doirasida markaziy o'rinda ekanini e'tirof etadi. Ayniqsa, "The Cambridge History of Arabic Literature" (Kembridj arab adabiyoti tarixi) asarida hadis adabiyotini baholash jarayonida u

ikki qarash orasida muvozanat saqlashga urinadi. Bir tomondan, Imom Buxoriy va Imom Muslim sahih to'plamlari alohida e'tirofga sazovor bo'lishi ularning tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan degan qarash bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ularning eng ishonchli manbaa sifatida tan olinishi faqatgina XIII asrda (hij. VII) sodir bo'lgan, degan qarashlar orasini muvofiqlashtirishga harakat qiladi. U bu ikki qarash orasini uyg'unlashtirib, Buxoriyning to'plami "muallifning hadis sahihligiga qat'iy talablari nuqtai nazaridan, deyarli darhol va umumiy ravishda eng ishonchli asar sifatida tan olingan" deya ta'riflaydi [5:275].

Yuqorida tilga olingan olimlar hadis manbalarini, xususan Buxoriyning Sahihul Buxoriy asarini o'z tadqiqotlarida asosan qisqacha tilga olib, cheklangan darajada e'tibor qaratganlar. Ular mazkur asarni e'tirof etgan bo'lsalar-da, hadis metodologiyasi va Sahihul Buxoriyning shakllanishi, funksiyasi hamda rasmiy to'plam sifatida shakllanish jarayonini yetarlicha chuqur va tizimli tarzda tahlil qilmaganlar. Ushbu masalalarni birinchi bo'lib keng qamrovli va ilmiy asosda o'rganishga uringan olim esa sharqshunos Ignaz Goldziher bo'lgan. Ushbu olim G'arb sharqshunoslari orasida hadis to'plamlarini eng mayda tafsilotlarigacha o'rgangan va bu borada noyob hamda fundamental tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilardan biridir. Xususan, u Buxoriyning asari bilan bog'liq boshqa jihatlariga ham to'xtaladi, xususan, sahih to'plamlarining an'anaviy tomoni va ijtimoiy o'zlikni anglashdagi beqiyos hissasiga ishora qiladi. U musulmonlar o'sha davrda Imom Buxoriyning hadis to'plami ustida ham qasam ichganini qayd etadi. Holbuki, bunday sharaf odatda faqat Qur'oni karimga xos bo'lgan [6:234].

Hadis ilmiga oid so'nggi tadqiqotlarda, xususan Imom Buxoriy va Imom Muslimning Sahih asarlarini o'rganishda alohida e'tiborga loyiq ishlar qilgan g'arb olimi, Jonatan Braun hisoblanadi. U 2005 - 2007-yillar davomida doktorlik dissertatsiyasini yozgan bo'lib, uning mavzusi: "The Canonization of al-Bukhari and Muslim" (Imom Buxoriy va Imom Muslim hadis to'plamlarining eng ishonchli manbaaga aylanishi) bo'lgan. Braun o'z tadqiqotining kirish qismida shunday yozadi: "Ushbu tadqiqot Imom Buxoriy va

Imom Muslimning to'plamlarining eng ishonchli manbaaga aylanish jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ularning qanday, qachon va nima sababdan vakolatli maqomga erishgani tahlil qilinadi [7:5]". Shuningdek: "Imom Buxoriy va Imom Muslim sahih to'plamlari Qur'ondan keyin eng mashhur va ishonchli kitoblar bo'lib, Buxoriy va Muslim islom sivilizatsiyasida ulkan obro'ga ega shaxslardir" deya e'tirof qiladi [7:16].

XULOSA

Imom Buxoriyning sahih to'plami islomdagi eng markaziy va hurmatga sazovor manbalardan biridir. Ushbu asar nafaqat hadislarni tizimli ravishda yig'ish va tasniflashda, balki musulmon jamiyatida diniy, ijtimoiy va ilmiy o'zlikni anglash jarayonini shakllantirishga ham beqiyos hissa qo'shgan. Sahihul Buxoriyning shakllanishi va eng ishonchli manbaaga aylanish jarayoni, uning qat'iy ilmiy uslubi va sahihlik mezonlari orqali amalga oshgan bo'lib, bu uni islom ilmlari an'anasi va sunnatni tushunishda asosiy va eng ishonchli manbaaga aylantirgan.

Sahihul Buxoriy IX asrdan beri o'zgarmas holda mavjud bo'lib, islom ilmiy an'anasi va hadis ilmidagi beqiyos manba sifatida qadrlanadi. U haqidagi tadqiqotlar g'arb olimlari tomonidan doimiy ijobiy baholangan; Ignaz Goldzeher va Jonatan Braun kabi yetuk olimlar esa Sahihul Buxoriyni ilmiy jihatdan chuqur o'rganib, jahon miqyosida tan olishga erishgan. Shu tariqa, Sahihul Buxoriy nafaqat sunniy an'anada, balki global ilmiy maydonda ham muqaddas va ishonchli manba sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hodgson, Marshall G. S. The Venture of Islam. Vol. 1. Chicago: University of Chicago Press. 1995.
2. Efrat, Dafna. A Learned Society in a Period of Transition. New York: New York University Press, 2000.
3. Khalidi, Tarif. Arabic Historical Thought in the Classical Period. Cambridge: Cambridge University Press, 1994..
4. Bulliet, Richard W. Islam: The View from the Edge. New York: Columbia University Press, 1995.
5. Abd al-Rauf, Muhammad. Hadith Literature I: The Development of the Science of Hadith. In The Cambridge History of Arabic Literature: Arabic Literature to the End of the Umayyad Period, edited by A. F. L. Beeston et al. Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
6. Goldziher, Ignaz. Muslim Studies, Vol. II. Translated and edited by S. M. Stern and G. R. Barber. Chicago: Aldine Atherton, 1971.
7. Brown, Jonathan A. C. The Canonization of al-Bukhārī and Muslim. Leiden: Koninklijke Brill NV, 2007.
8. <https://www.openu.ac.il/en/personalsites/profdaphnaephraat.aspx> Oxirgi qaralgan sana: 31.01.2026
9. <https://history.columbia.edu/person/bulliet-richard/> Oxirgi qaralgan sana: 31.01.2026.